

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

STRATEGIK EKOLOGIYA MENEJMENTI

Nomozov Ismoil

+998942839697

Ziyodov Ulug'bek

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti, IK-423 guruh talabasi.

+998938335525

Ziyodova Rayhona

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti, IK-423 guruh talabasi.

+998933114501

Abstrakt: *Ushbu maqolada strategik ekologiya menejmenti, strategik ekologiya menejmentining tahlil usullari to'g'risida ma'lumotlar beriladi.*

Kalit so'zlar: *Harakatlar rejasi, atrof-muhit muhofazasi, resurslarni tejash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, SWOT usuli.*

Ekologik boshqaruvda strategiya «xarakatlar rejasi» bo'lib, u qachon, qanday, nega va nima qilish kerak degan savollarga javob topishga yo'naltiradi. Strategik ekologiya menejmenti atrof-muxitni muhofaza qilish, resurslarni tejash, ekologik tadbirkorlik xatarlarini kamaytirish chuqur o'ylangan va samarali choralarni tizimli amalga oshirish, raqobat ustunligini egallash va qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompaniyalarning strategik manfaatlariga mos keladi. Doimiy ravishda yuzaga keladigan ekologik imkoniyatlar va xatarlar har qanday firma oldiga chuqur asoslangan strategik maqsadlarni qo'yish va ularga erishish imkonini beradigan boshqaruv mexanizmlarini qo'llashni taqozo etadi. Bular strategik ekologiya menejmentining (SEM) mazmuni va eng muhim vazifalarini belgilab beradi. Strategik ekologiya menejmenti korxona muvafaqqiyati uchun atrof muhitni muxofaza qilish, resurslarni tejash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohalarida boshqa korxonalar bilan raqobatda, ekologik xarakterdagi potentsial, shuningdek uning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ekologik xatarlarni aniqlash va shu asosda kompaniyaning uzoq muddatli maqsadini belgilashi va ularni chuqur o'ylanib tuzilgan choralar va instrumentlar vositasida amalga oshirishni ta'minlashi lozim.

Strategik ekologiya menejmentining shakllanishi quyidaagilarni amalga oshirishni talab qiladi:

- Korxonaning vazifasi (missiyasi) to'g'risida kontseptual ishlanmalar va qarorlar qabul qilish.
- Korxonaning tashqi muhiti (o'rab turuvchi muhiti) va ichki potentsiali (imkoniyatlari) tahlili.
- Korxonaning vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladigan maqsadlar va strategiyani ishlab chiqish.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

Strategik ekologiya menejmenti tadqiqotlarida xilma-xil usullardan foydalaniladi. Korxonaning ichki muhitini tadqiq etish uchun korxonalar, masalan, SWOT - taxlil (inglicha SWOT -Strengths) usulini, ya'ni kompaniyaning kuchli, kuchsiz tomonlari, uning imkoniyatlari va xavf-xatarlari tahlili usulini qo'llashlari mumkin. SWOT - usuli korxona potentsialini tizimli o'rganish va baxolashning samarali vositasi bo'lib, firmaning ekologik vazifasi (missiyasi) va shunga mos maqsadlarini amalga oshirishga yordam beradi. Ekologik SWOT-tahlil quyidagi xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi:

- Ekologik SWOT tahlil. Kuchli tomonlari: ekologik jarayonlar va maxsulotlar, «yashil» brendlarning mavjudligi, xodimlarning reglament va majburiy talablarga rioya qilishga tayyorligi, «yashil» maxsulotlar va texnologiyalar uchun ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari potentsiali. Kuchsiz tomonlari: qayta davrlashtirilmaydigan mahsulotlar qadoq materiallari, butilkalar va xokazolar, «ifloslantiruvchi» texnologiya, toksik (xavfli) chiqindilar, «ifloslantiruvchi» imidji, xodimlar reglament va talablarga rioya qilmaydilar. Imkoniyatlari: Yangi bozorni egallash, ekologik xavfsiz mahsulotlarni ishlab chiqarish va yetishtirish, «yashil» mahsulotlarni shakllantirish hisobiga kompaniyaning uzoq muddat omon qolishini ta'minlash, tabiat muhofazasi choralari natijaliligini atrof-muhit muhofazasi, resurlar va harajatlarni tejash bo'yicha tadbirlarni «yuqori» maqsadlarni quyish yo'li bilan ta'minlash.

Xavf-xatarlari: Ekologik standart o'ta talabchanligining oshishi, davlatning aralashuvi va nazoratning kuchayishi, «yashil ishlab chiqarish» va boshqa ijtimoiy guruhlarning norozilik namoyishi, raqobatchilarning bozordagi «yashil» mahsulot sektorini qo'lga olishi, malakali xodimlarning firmaning vaqtinchalik bozor va boshqa qiyinchiliklari, muvaffaqiyatsizligi tufayli o'rta muddatli istiqbolida kompaniya omon qolishining xavf-xatarlari va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha investitsiyalarning zarurligini keltirib chiqaradi.

Yaxshi natijalarga erishish uchun mutaxassislar umumiy strategik menejmentda ham qo'llaniladigan «qiymatning ekologik zanjiri» usulidan foydalanishni tavsiya etadilar. Qiymatning ekologik zanjiri o'ziga xos mikroskop bo'lib, uning vositasida kompaniyaning strategik tabiat muhofazasi maqsadlariga erishishda uning faoliyatining xilma-xil, lekin bir-biri bilan o'zaro aloqa va o'zaro bog'liq bo'lgan turlarning hissalarini (yoki ularning yo'qligi) aniqlanadi va baxolanadi. Ushbu hissani baxolash asosida navbatdagi korxonaga tuzilmasini ratsionallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi, ularda «kam ahamiyatli bo'g'inlar»ni tugatish (qayta qurish) masalalari ham qo'yiladi. Bu usulning asosiy g'oyasi shundaki, u kompaniyaning strategik vazifalarini qiymatning barcha zanjiri orqali, ham birlamchi faoliyat turlarini (xomashyo etkazib berish, ishlab chiqarish bo'yicha ishlarni bajarish, mahsulotni sotish (o'tkazish), marketing va sotish, sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish), ham qo'llab-quvvatlovchi turlarini (firmaning infratuzilma, mehnat resurslarini boshqarish, texnologiya va logistikani rivojlantirish) qo'shib, amalga oshirishni ta'minlashga asoslanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsam, Strategik ekologiya menejmenti atamasi ekologik barqarorlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Bu yondashuv ijtimoiy, iqtisodiy, va ekologik omillarni birlashtirib, uzluksiz rivojlanishni

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

rag'batlantiradi. Barqaror rivojlanish: Strategik ekologiya menejmenti, ekologik muammolarni hal qilishda barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqadi. Integratsiyalashgan yondashuv: Ijtimoiy va iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda, ekologik masallarni kompleks tarzda hal etadi. Resurslarni boshqarish: Tabiiy resurslarning oqilona va barqaror foydalanilishini ta'minlaydi, bu esa kelajak avlodlar uchun muhimdir. Monitoring va baholash: Olingan natijalarni nazorat qilish va baholash orqali strategiyalarni doimiy ravishda takomillashtiradi. Strategik ekologiya menejmenti orqali atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, iqtisodiy o'sishni va ijtimoiy adolatni ta'minlash mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, bu yondashuv ekologik muammolarni hal qilishda innovatsiyalarni va ta'limni rag'batlantiradi, bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" –T.: 2009.
2. Milliy ma'ruza. -T., O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi 2008-2009.
3. Paxomova N., Endres A., Rixter K. Ekologicheskiy menejment. Uchebnoe posobie. -M.: Spb.: Piter, 2003. 168
4. T.Jumayev, 3. Xoshimov, O. Ruziev. Ekologik menejment. O'quv qo'llanma. T.: 2004.
5. G'ulomov S.S. Menejment asoslari. -T., 2002
6. [http: www.murman.ru](http://www.murman.ru) <[http:G`G`www.murman.ru](http://G`G`www.murman.ru)> (ecology) comitet.
7. [www. ecology, com.](http://www.ecology.com)
8. [www. ecology and sociaty.org](http://www.ecologyandsociety.org) <[http:G`G`sociaty.org](http://G`G`sociaty.org)>.
9. [www. ecologycenter.org](http://www.ecologycenter.org) <[http:G`G`ecologycenter.org](http://G`G`ecologycenter.org)>